



QO‘CHQOR NORQOBIL ASARLARIDA BADIY TASVIR,
"QISHDAGI LOLA" HIKOYASI ASOSIDA

Ziyaudinova Gulnoza Iqboljon qizi
ADPI asisstant o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘chqor Norqobilning asarlaridagi badiiy tasvirlarga nazar tashlaymiz. Uning qanday ma‘no ko‘lami va ichki his-tuyg‘ular, kechinmalar tashishini qisqacha talqin etamiz.

Kalit so‘zlar: Badiiy tasvir, qor, urush, hikoya, yirik plan, lola.

Oltin Qalam va Usmon Nosir mukofotlari sovrindori Qo‘chqor Norqobil. U o‘zining sermahsul ijodi, teran va hissiyotlar bilan yo‘g‘rilgan, urush mavzusiga bag‘ishlangan, hammaga birdek manzur bo‘la olgan qissa va hikoyalari, (“Biz jangdan qaytmadik” , “Dunyo generallari tinchlik uchun” , “Afg‘on: 2 rota” , “Urush tugasa ayting qaytib kelaman” kabi) asarlari uchun sazovor bo‘lgan.

Qo‘chqor Norqobil qissa va hikoya janrida sermahsul ijod qilgan. Bilamizki, hikoya janrida qahramon yoki davr emas, voqealik yirik planga chiqadi. Yozuvchining “Xun”, “Arosat” va “Bosinqirash” yaxlit syujet qurilmalarining yo‘qligi, muallifning o‘y- mushohadalari, o‘zining voqealikka bo‘lgan munosabatini asar markaziga, yirik planlarga olib chiqqanini ko‘rishimiz mumkin. Uning hikoyalarida asarning strukturasi ko‘proq yozuvchi xarakterini ochish maqsadiga moyilroq ekanligini va ba‘zi hikoyalarida real qahramonning ko‘rinmasligi xususiyatlari bilan kichik epik janrlarni esga soladi.

Badiiy tilning eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko‘rsatdik. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalar” deb ataladi.¹ Badiiy adabiyot so‘z vositasida tasvirlaydi vas hu tasvir orqali ifodalaydi. Yozuvchining “Qishdagi lola” va boshqa qissa, hikoyalari bir-birining mantiqiy davomidek kitobxonda taassurot qoldiradi. Chunki, hikoya yoki qissalarda g‘oyalar bir-birini to‘ldirsa voqealar rivojidadagi ayrim o‘zgarishlar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Yozuvchining ichki kechinmalari ijodidagi yaxlit mavzu ko‘lami hususida tasavvur qilishga imkon beradi.

Asarni badiiy tahlil qilishga kirishilsa, uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o‘rganishni ya‘ni Kontekstual tahlil orqali yoki asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o‘rganish ya‘ni Immanent tahlil orqali amalga oshiriladi.² “Qishdagi lola” hikoyasiga kelsak, uning ichiga kirishdan oldin uning nomimi nima

¹Adabiyot nazariyasi: 2 tomlik. -1 – t. -T., 1978.

² Adabiyot nazariyasi asoslari. D. Quronov. -T.: Akademnashr, 2018.



uchun bunday nomlanganli hususida fikr yuritish maqbulroq. Sababi ko'p asarlarda ism va nomlar ma'no tashiydi. Asarning ma'lum bir mazmun mohiyatini qamrab olishi mumkin. albatta, bu yozuvchining mahoratiga bog'liq. Qishdagi lola... Qish deganda hayolimizga birinchi qahraton, izg'irin, o'lik sukunat, oppoq kafanga burkangan keng dalalarni tasavvur qilamiz. Lola esa, go'zallik, bahor, mayin esyotgan shabboda bilan birga qizil rang, qonni ham ko'z o'ngimizda gavdalantiramiz. Endi tasavvur qilib ko'ring oppoq qor bilan burkangan dalaning markazida qip-qizil ochilib turgan lola. Bu bilan yozuvchi urush suratini yoki odam o'ldirishni istamasada, qo'li qonga belangan insonlarni nazarta tutgandir. Prizmaning boshqa tomonidan, asardan kelib chiqib qarajak, Tohirning qahraton qolgan ruhiyati, muzlab qolgan yuragi, to'zib yotgan hayollariga bahor bo'ib Irina kirib keldi.

Hikoyada yozuvchi yomg'irga nisbatan "toshyomg'ir" deya ifodalagan. "Toshyomg'ir sim-simlab shig'alab, yoqimli yog'yapti. Ha bu- toshyomg'ir. Qor va yomg'ir orasidagi qahru azob bu."³ Bu beqiyos badiiy topilma. Qahramonning kasbi - yozuvchi. Lekin uning hayotga qiziqishi yo'qdek. Ishga kech keladi. Yuragini o'yib yog'ayotgan yomg'irga ham befarq. Uning oldiga 16 yil oldingi Moskvalik tanishi keladi. Tohir uni tanimaydi. Ayol o'zini tanitish uchun "1987-yil. Yoz. Fayzobod. Irina Mixaylovna endi esladingmi?"- deydi.⁴ Tohirning miyasi chaqmoq urganday bo'ladi. "chaqmoq urganday" birikmasi bilan qahramonning yashin tezligida o'tmishni eslashi, urush surati qaytadan jonlanadi. U Irina bilan Afg'on urushida bir rotada xizmat qilganini, bir kulbadagi dushmani, ayolini, chaqalog'ini o'limdan saqlab qolgani uchun oyog'idan otishgani va gospitaldan nari qaytib kelganini eslaydi. Irina unga bir surat va xat qoldirib Moskvaga qaytib ketib qoladi. Suratdagi Irina bo'lsa kerak deb o'ylayotgan kitobxon, asarni o'qir ekan hayratda qoladi. Suratda ana shu Afg'on ayoli Shafiq va o'g'li Ahmad edi. Suratda ordida esa, "Hayotimizning eng og'ir lahzasida bizga shafqat qilgan mehribon insonga qarzdorlik bilan tashakkur aytamiz.."- deb yozilgan edi. Yozuvchi bu jumlar bilan lahzalarda qilingan insoniylik, yaxshilik kimnidir yillab duo qilishi, rahmat aytishi mumkinligini aytmoqchi. Xulosa qilib aytganda, insonlar ozgina bo'sa ham insoniylik tuyg'usi bo'lsa, hayotda inson bo'lib yashay oladi.

Q. Norqobilning asarlari bir-birining davomiga o'xshaydi dedik. Uning "Bir burda non" hikoyasini olsak, "Bir burda nonga odamning qorni to'yadi... deysan. Haq aytasan. Lekin... Odamzot nega shuni tushunib yetmaydi? Nega bir burda nonga qorni to'ysa ham ochko'zlik bilan bir-birini g'ajiydi. Urush qiladi..." Urushda hech kim g'alaba qozonmaydi. "Urush surati" hikoyasida ham dilni o'rtovchi jumalarga ko'zimiz

³ Qo'chqor Norqobil. "Bu yerlarda hayot boshqacha". G'. G'ulom, 2018.

⁴ Qo'chqor Norqobil. "Bu yerlarda hayot boshqacha". G'. G'ulom, 2018.



tushadi. Gʻulom ota Yolgʻizining qabriga “Men otamdan oldin oʻlganman”- deb yozdirib qoʻyadi. Millatimizda farzand doʻgʻidan ortiq iztirob yoʻq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. -T.: Akademnashr,2018.
2. Qoʻchqor Norqobil. Gʻ. Gʻulom.2008. “ Bu yerlarda hayot boshqacha”.
3. Adabiyot nazariyasi: 2 tom, - 1-t. -T., 1978.

